2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 631.145

QISHLOQ XO‘JALIGI AGROKLASTERLARI FAOLIYATIDA DRON TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING IMKONIYATLARI VA SAMARADORLIGI

MUXTAROVA MOHINUR SULTONOVNA
“O‘zdavyerloyiha” Davlat ilmiy loyihalash instituti q.x.f.f.d. (PhD)
E-mail: muhtorovamohinur5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi agroklasterlari faoliyatida dron texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni raqamli boshqaruv tizimiga integratsiyalash masalalari yoritilgan. Ekin maydonlarini monitoring qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llash, hosildorlikni prognozlash hamda yig‘im-terim jarayonlarini rejalashtirishda dronlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, dronlardan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy, texnik va tashkiliy muammolar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: o‘tloqi saz tuproqlar, gilos, sizot suvlari, *Prunus avium L.*, agrotexnologiya, tuproq unumdorligi, agrokimyoviy xususiyatlar, o‘g‘itlash, sug‘orish, organik o‘g‘it, biogumus, Plantofol.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности использования беспилотных технологий в деятельности сельскохозяйственных агрокластеров и их интеграция в цифровые системы управления. Анализируется важность дронов в мониторинге пахотных земель, рациональном использовании водных ресурсов, внесении минеральных удобрений и средств защиты растений, прогнозировании урожайности и планировании процессов уборки урожая. Также рассматриваются экономические, технические и организационные проблемы, связанные с использованием дронов, и разрабатываются предложения по их устранению.
Ключевые слова: агрокластеры, дроны, водные ресурсы, метеорологические показатели, датчики, агротехнические проблемы, процессы орошения, влажность почвы.

Abstract. This article discusses the possibilities of using drone technologies in the activities of agricultural agroclusters and their integration into digital management systems. The importance of drones in monitoring arable land, rational use of water resources, application of mineral fertilizers and plant protection products, yield forecasting, and planning of harvesting processes is analyzed. Also, economic, technical, and organizational problems associated with the use of drones are considered and proposals are developed to eliminate them.
Keywords: agroclusters, drones, water resources, meteorological indicators, sensors, agrotechnical problems, irrigation processes, soil moisture.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi klasterlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish mamlakat agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Yer resurslaridan samarali soydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish, qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manaatdorligini ta’minlash agroklasterlar faoliyatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi klasterlarini tashkil etish tartibi yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 46[1]-moddasida qishloq xo‘jaligi klasterlariga qishloq xo‘jaligi

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

yerlarini berish tartibi quyidagicha belgilangan, agrosanoat klasterlari, shu jumladan kooperatsiya shaklidagi klasterlar uchun:

- paxtachilik-to‘qimachilikka ixtisoslashganlarga - kamida 2000 gektar;
- g‘allachilikka ixtisoslashganlarga - kamida 1000 gektar;
- sabzavotchilik va polizchilikka ixtisoslashganlarga - kamida 200 gektar;
- bog‘dorchilik, uzumchilikka ixtisoslashganlarga - kamida 100 gektar;
- chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarga ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun (shartli bir bosh qoramol uchun) sug‘oriladigan yerlardan - kamida 0,3 gektar, lalmikor yerlardan - kamida 1 gektar, yaylovlar va pichanzorlardan - kamida 2 gektar.

Bu esa o‘z navbatida agrosanoat klasterlari uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Aniqlangan tajribalarga asosan, raqamli texnologiyalarni yer maydoni katta bo‘lgan hududlarda qo‘llashning samaradorligi ancha yuqori. Bugun butun dunyoda oziq ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb masalaga aylandi. Ayni paytda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq aholisining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta’minlash masalalari bevosita qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning zamonaviy usuli klasterlar tizimi bilan bog‘liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish, yer resurslarini boshqarish, yer kadastri va yer monitoringini tashkil etish masalalari tegishli qonunchilik hujjatlari hamda mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Yer resurslaridan samarali foydalanish, yerlarning holatini baholash va monitoring qilishga oid ilmiy tadqiqotlar esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini hududiy jihatdan tashkil etish, yer maydonlarining unumdorligini saqlash va mavjud resurslardan maqsadli foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, dron texnologiyalaridan foydalanish yer monitoringini zamonaviylashtirish va agroklasterlar faoliyatida tezkor axborot bilan ta’minlashning istiqbolli vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida dronlar yordamida qishloq xo‘jaligi ekinlarini kuzatish, o‘simliklarning vegetatsion holatini baholash, zararkunandalar va kasalliklar ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni aniqlash hamda hosildorlikni prognozlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Dronlarga o‘rnatilganoddiy, multispectral va termal kameralar yordamida olingan tasvirlar ekinlarning rivojlanish darajasi, o‘simlik qoplamining zichligi, harorat farqlari va boshqa muhim ko‘rsatkichlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bunday ma’lumotlardan foydalanish an’anaviy dala kuzatuvlariga nisbatan keng maydonlarni qisqa vaqt ichida qamrab olish, muammoli hududlarni aniqlash va agrotexnik tadbirlarni aniq rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Agroklasterlar faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va mahsulotni realizatsiya qilish jarayonlarini o‘zaro muvofiqlashtirish masalalari muhim o‘rin tutadi. Mazkur tizimda dronlardan olingan ma’lumotlarni agroklasterning yagona raqamli boshqaruv platformasiga integratsiya qilish alohida ahamiyatga ega. Bunda dala xaritalari, ekinlarning holati, suv sarfi, agrotexnik tadbirlar, hosildorlik prognozlari va ishlab chiqarish xarajatlari yagona axborot muhitida jamlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida qishloq xo‘jaligi agroklasterlarida yer va suv resurslaridan foydalanish, ekin maydonlarini monitoring qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish faoliyati belgilandi. Tadqiqot doirasida agroklasterlarning ekin maydonlaridagi agrotexnik jarayonlarni kuzatish, o‘simliklarning rivojlanish holatini baholash, sug‘orish va oziqlantirish tadbirlarini rejalashtirish, hosildorlikni prognozlash hamda yig‘im-erim ishlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq jarayonlar o‘rganildi. Shuningdek, agroklasterlar faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari tadqiqot obyeltining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti esa agroklasterlar faoliyatida dron texnologiyalaridan foydalanish, ular yordamida olingan tasvir va sensor ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish hamda ushbu ma’lumotlarni geografik axborot tizimlari va agroklasterlarning raqamli boshqaruv platformalariga integratsiya qilish bilan bog‘liq tashkiliy, texnologik, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlaridan iborat. Tadqiqot predmetiga, shuningdek, dronlar yordamida aniqlangan muammoli hududlar bo‘yicha qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash, agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish va joriy etilgan texnologiyalarning samaradorligini baholash usullari ham kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agroklasterlar faoliyatini yuritishda ekin maydonlarini muntazam kuzatish hosil sifatini saqlash va agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishni talab etadi. An’anaviy usullarda dalalarni ko‘zdan kechirish ko‘p vaqt va mehnat talab qiladi. Dronlar esa katta maydonlarni qisqa vaqt ichida kuzatib, yuqori aniqlikdagi ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Olingan ma’lumotlar orqali ekinlarning notekis rivojlanishi, o‘simlik qoplamidagi o‘zgarishlar, sug‘orish jarayonidagi muammolar va agrotexnik muammolarni aniqlaydi. Bu tezkor ma’lumotlar yerdan foydalanuvchilar uchun muammoli hududlarni bevosita tekshirish va tegishli chora-tadbirlarni belgilashda katta yordam beradi. Masalan, Paxta va g‘allachilik agroklasterlarida dronlar paxta va g‘allaning o‘sish sur’atlarini kuzatish, maydonlar bo‘yicha o‘simlik qoplamini solishtirish va qo‘shimcha agrotexnik tadbirlarni talab qiladigan hududlarni aniqlashda samarali hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish qishloq xo‘jaligining ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, suv ta’minoti cheklangan

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

hududlarda sug‘orish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish agroklasterlarning iqtisodiy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Termal kameralar va multispektiral sensorlar bilan jihozlangan dronlar ekin maydonlaridagi ayrim suv tanqisligi belgilari va harorat farqlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu ma’lumotlar tuproq namligi, ob-havo ko‘rsatkichlari va sug‘orish tizimi haqidagi axborot bilan birgalikda tahlil qilinganda sug‘orishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlarni belgilash imkoniyati mavjud. Dronlar yordamida ekin maydonlarining holatini kuzatish orqali qaysi hududlarga ko‘proq yoki kamroq suv kerakligini aniqlash va sug‘orishni shunga qarab tashkil etish mumkin bo‘ladi. Bu esa suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dronlarning yana bir muhim qo‘llanish yo‘nalishi mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llashdan iborat. O‘simliklarning rivojlanishi maydon bo‘ylab bir xil bo‘lmagan sharoitda barcha hududlarga bir xil miqdorda resurs sarflash iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin. Dronlar yordamida olingan ma’lumotlar asosida muammoli hududlar xaritalanadi va ularga mos agrotexnik tadbirlar belgilanadi. Maxsus purkash tizimiga ega dronlar yordamida tegishli texnik va me’yoriy talablar bajarilgan holda kimyoviy o‘g‘itlarni purkashda qo‘llaniladi.

Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor berish zarur:

- o‘g‘itlarning belgilangan me’yorlariga rioya qilish;
- shamol tezligi va ob-havo sharoitlarini hisobga olish;
- o‘g‘itlarning qo‘shni maydonlarga tarqalishini oldini olish;
- dron operatorlarini xavfsizligini ta’minlash;
- ishlov berish samaradorligini dala kuzatuvlari orqali tekshirish.

Dronlardan o‘g‘itlarni purkashda foydalanish texnikalarni dalaga kirish zaruratini kamaytiradi va ishlov berishni tezlashtirish imkoniyatini oshiradi.




1-rasm. Agrokimyoviy tadbirlarni amalga oshirish jarayoni

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Hosildorlikni prognozlash va yig‘im-terimni rejalashtirish agroklasterlar faoliyatida hosildorlikni oldindan baholash ishlab chiqarish, saqlash, tashish va qayta ishlash jarayonlarini muvofiqlashtirish uchun muhimdir. Dronlar yordamida vegetatsiya davrida bir necha marta tasvirga olish orqali ekinlarning rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Olingan ma’lumotlarni meteorologik ko‘rsatkichlar, tuproq xususiyatlari, ekin turi va avvalgi yillardagi hosildorlik natijalari bilan birlashtirish hosil prognozlarini takomillashtirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt va geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari ekin maydonlaridan olingan tasvirlarni tahlil qilish, ekinlarning holatini aniqlash hamda hosildorlik ko‘rsatkichlarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Bunday tizimlar agroklasterlarga hosilni yig‘ib olish muddatlarini rejalashtirish, ishchi kuchi va texnikani taqsimlash, omborlar quvvatini oldindan belgilash hamda qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish rejalarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Dronlarni agroklasterlarning raqamli boshqaruv tizimiga integratsiya qilish – dronlardan foydalanishning samaradorligi faqat tasvirga olish yoki purkash ishlarini bajarish bilan belgilanmaydi. Asosiy natija to‘plangan ma’lumotlarni agroklasterlarning boshqaruv tizimiga integratsiya qilish orqali yuzaga keladi.



2-rasm. Dron texnologiyalari asosida ekin maydonlarini monitoring qilish va boshqarish bosqichlari

Birinchi bosqich - ma’lumotlarni yig‘ish. Dronlar belgilangan marshrut bo‘yicha uchib, ekin maydonlarining tasvirlari va sensor ma’lumotlarni to‘playdi.

Ikkinchi bosqich – ma’lumotlarni qayta ishlash. Olingan tasvirlar maxsus dasturlar yordamida qayta ishlanib, dala xaritalari va o‘simliklarning holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar shakllantiriladi.

Uchinchi bosqich – tahlil va muammolarni aniqlash. Agronomlar ma’lumotlarni dala kuzatuvlari, tuproq tahlillari va meteorologik axborot bilan solishtirib, muammoli hududlarni belgilaydi.

To‘rtinchi bosqich – boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Tahlil natijalariga asoslanib, sug‘orish, oziqlantirish, o‘simliklarni himoya qilish va boshqa agrotexnik tadbirlar rejalashtiriladi.

Beshinchi bosqich – natijalarni baholash. Amalga oshirilgan tadbirlarni hosildorlik, xarajatlar va resurslar sarfiga ta’siri o‘rganiladi.

Ushbu yondshuv dronlar, geografik axborot tizimlari, meteorologik ma’lumotlar va agroklasterning ichki hisob tizimlarini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Natijada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini alohida operatsiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona raqamli boshqaruv tizimi sifatida tashkil etish mumkin.

Dron texnologiyalari keng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularni agroklasterlar faoliyatiga joriy etishda ayrim muammo va kamchiliklar mavjud;

- dronlar, sensorlar va ma’lumotlarni qayta ishlash dasturlarini xarid qilish dastlabki investitsiyalarni talab qiladi. Ayniqsa, katta maydonlarga ega bo‘lmagan xo‘jaliklar uchun bunday xarajatlar iqtisodiy jihatdan murakkab bo‘lishi mumkin.
- dronlardan samarali foydalanish uchun malakali operatorlar, agronomlar va raqamli ma’lumotlarni tahlil qila oladigan mutaxassislar kerak bo‘ladi.
- ob-havo sharoitlari, batareya quvvati, aloqa sifati, tasvirlarni qayta ishlash va turli axborot tizimlarining o‘zaro mosligi texnologiyadan foydalanish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.
- dronlardan foydalanishda amaldagi aviatsiya va boshqa tegishli qonunchilik talablariga rioya qilish, parvozlar uchun zarur ruxsatlarni olish hamda kimyoviy vositalarni xavfsiz qo‘llash talab etiladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish mumkin:

- agroklasterlarda dron xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba loyihalarini tashkil etish;
- qimmat uskunalarni har bir xo‘jalik alohida sotib olish o‘rniga umumiy xizmat ko‘rsatish markazlarini rivojlantirish;
- agronomlar va operatorlar uchun amaliy o‘quv kurslarini tashkil etish;
- dron ma’lumotlarini GIS va boshqa raqamli boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish;
- xavfsizlik, ma’lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha aniq tartiblarni belgilash.

Bunday chora-tadbirlar dron texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish, xarajatlarni nazorat qilish va amaliy natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dronlar qishloq xo‘jaligi agroklasterlari faoliyatini raqamlashtirishning istiqbolli vositalaridan biri hisoblanadi. Ular ekin maydonlarini monitoring qilish, o‘simliklarning rivojlanish holatini baholash, sug‘orish va oziqlantirish tadbirlarini rejalashtirish hamda hosildorlikni prognozlash uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash imkonini beradi. Dron texnologiyalarining asosiy afzalligi katta maydonlar bo‘yicha tezkor va batafsil ma’lumot olish hamda ushbu ma’lumotlardan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda foydalanish imkoniyatidir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi, agroklasterlarda dronlardan foydalanishni dastlab ekin maydonlarini monitoring qilish va muammoli hududlarni aniqlashdan boshlash lozim. Dronlardan olingan ma'lumotlarni geografik axborot tizimlari, tuproq namligi sensorlari va meteorologik axborot bilan birlashtirish zarur. Dron xizmatlarini ko'rsatadigan ixtisoslashgan markazlarni tashkil etish orqali kichik va o'rta xo'jaliklarning ushbu texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Dronlarni joriy etish samaradorligini baholashda xarajatlar, hosildorlik, suv va o'g'it sarfi kabi ko'rsatkichlarni qamrab oluvchi iqtisodiy monitoring tizimni yaratish kerak, Agroklasterlar mutaxassislarining raqamli ko'nikmalarini oshirish va dronlardan foydalanish bo'yicha amaliy treninglarni yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. O'zbekistonning paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik va boshqa qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida dronlardan foydalanish bo'yicha mahalliy tajriba loyihalarini amalga oshirish va ularning natijalarini ilmiy asosda baholash zarur.

Ushbu texnologiyalardan oqilona foydalanish agroklasterlarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998- yil 30-aprel.

2. Turayev R.A. «Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish» T.f.d. (DSc) avtoreferat**.** - Toshkent, 2021.

3 Raxmonov Q. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlarga oid yer axborot bazasini yaratishning uslubiy masalalari. // "Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilishning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari to'lami. Toshkent, TIMI, 2012.

4 Abdullayeva M.T. Qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish usullarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida) Q.x.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati -Toshkent-2022.

5 Abduraxmonov S.N**,** Norboyeva D.G'. Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun raqamli kartalar tuzishning nazariy va amaliy ahamiyati, // «Agrokimyo himoya va o'simliklar karantini» ilmiy-amaliy jurnali. 2023.

6 Sharopov R.N, Muxtarova M.S. Raqamli texnologiyalar asosida paxta ekilgan maydonlarga monitoringini yuritish. // «O'zbekiston zamini» Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. 2023. - B. 151-156.

7 Muxtarova M.S. Raqamli texnologiyalar yordamida fermer xo'jaliklari yerlaridan foydalanishni tashkil etish Q.x.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati -Toshkent-2026.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy